



DAVLAT VA XUSUSIY MAKTABLARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Yuldasheva Nurguloy Sarvar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat va xususiy maktablarda tashkil etilayotgan ta'lim jarayoni, ularning o'xshash hamda farqli jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur ta'lim muassasalarining ta'lim sifati, o'qitish samaradorligi, o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlari hamda ijtimoiy ahamiyati yoritib beriladi. Maqolada davlat va xususiy maktablarning ijobiy va salbiy tomonlari qiyosiy tahlil asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: davlat maktabi, xususiy maktab, ta'lim sifati, tanlov, xavfsiz muhit, statistika ma'lumotlari, sertifikat, individual yondashuv.

Abstract: This article analyzes the similarities and differences between public and private schools, focusing on the quality of education, teaching effectiveness, learning environment, and social significance. The study highlights both positive and negative aspects of public and private schools through comparative analysis.

Keywords: public school, private school, quality of education, choice, safe environment, statistics, certification, individual approach.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ государственных и частных школ, рассматриваются особенности образовательного процесса, качество обучения и условия, создаваемые для учащихся. Также выявляются положительные и отрицательные стороны обеих форм образования.

Ключевые слова: государственная школа, частная школа, качество образования, ученик, выбор, безопасная среда, статистика, индивидуальный подход.



Hozirgi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim tizimida davlat va xususiy maktablar faoliyatining kengayib borishi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. So'nggi yillarda xususiy ta'lim muassasalari sonining ortishi ta'lim xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlat maktablari aholining barcha qatlamlari uchun teng va bepul ta'lim olish imkoniyatini ta'minlasa, xususiy maktablar zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va individual yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishi bilan ajralib turadi. Shu bois, ushbu ikki turdagi maktablarning ta'lim jarayonidagi o'xshash va farqli jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning afzallik hamda kamchiliklarini aniqlash bugungi kun talabi hisoblanadi.

So'nggi yillarda xususiy maktablar faoliyatining jadal sur'atlarda kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur holatni tasdiqlovchi muhim omillardan biri rasmiy statistika ma'lumotlaridir. Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2024/2025 o'quv yili boshida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni 10 943 tani tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2020/2021 o'quv yiliga nisbatan 762 taga oshgan. Ularning 455 tasi nodavlat umumta'lim tashkilotlari bo'lib, bu ko'rsatkich so'nggi yillarda xususiy maktablar sonining 4,5 barobarga ko'payganini ko'rsatadi.

Davlat maktablari — barcha o'quvchilar uchun bepul ta'lim beruvchi, asosan davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ushbu maktablarda ta'lim jarayoni davlat tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida olib boriladi. Davlat maktablari deyarli barcha mamlakatlarda mavjud bo'lib, ularning asosiy vazifasi aholining barcha qatlamlari uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ta'lim odatda boshlang'ich va o'rta ta'limni (4 yoshdan 18 yoshgacha) qamrab oladi.



Xususiy maktablar esa davlat tomonidan moliyalashtirilmaydigan va mustaqil boshqariladigan ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular asosan ota-onalar to'lovi hamda homiylik mablag'lari hisobidan faoliyat yuritadi. Xususiy maktablarda ta'lim jarayoni ko'proq innovatsion yondashuvlar, zamonaviy metodlar va individual ta'lim asosida tashkil etiladi.

Davlat maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar uchun malaka oshirish talablari mavjud bo'lsa-da, xususiy maktablarda bu talablar yanada qat'iyroqdir. Xususiy maktablarda o'qituvchilardan maxsus sertifikatlar, doimiy ravishda o'z ustida ishlash va professional rivojlanish talab etiladi. Bu holat ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Sinfdagi o'quvchilar soni ham muhim farqlardan biridir. Odatda davlat maktablarida bir sinfdan 30–35 nafar, ba'zan undan ham ortiq o'quvchilar tahsil oladi. Xususiy maktablarda esa bu ko'rsatkich 15–20 nafarni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yildagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qaroriga muvofiq, sinflardagi o'quvchilar soni 35 nafardan oshmasligi belgilangan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kam sonli o'quvchilardan iborat sinflarda ta'lim samaradorligi yuqoriroq bo'ladi.

Xususiy maktablarda o'quvchilarga individual yondashuv, qo'shimcha rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, qulay va xavfsiz ta'lim muhiti yaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ko'plab ota-onalar xususiy maktablarni tanlashga intilmoqda. Biroq xususiy maktablarning to'lovlari yuqori bo'lgani sababli, bunday tanlovni amalga oshirishda puxta o'ylangan va asosli qaror qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, davlat va xususiy maktablarning har biri o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Davlat maktablari ta'limning ommabopligi va teng imkoniyatlarni ta'minlash, xususiy maktablar ta'lim sifati, individual yondashuv va zamonaviy metodlari bilan ajralib turadi. Ta'lim muassasasini tanlashda o'quvchining ehtiyojlari, imkoniyatlari hamda ota-onaning ijtimoiy-iqtisodiy holatini inobatga olish muhimdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.** Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida : qaror. – Toshkent, 2017.
2. **Kun.uz.** O‘zbekiston ta’lim tizimida xususiy va davlat maktablarining farqlari [Elektron resurs]. – 2023. – Kirish rejimi: <https://kun.uz> (murojaat sanasi: 15.02.2025).
3. **O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi.** Xususiy va davlat maktablari o‘rtasidagi farqlar [Elektron resurs]. – 2025. – Kirish rejimi: <https://www.uznews.uz> (murojaat sanasi: 13.01.2025).
4. **Samarqand viloyati statistika boshqarmasi.** Xususiy va davlat maktablari bo‘yicha statistik ma’lumotlar [Elektron resurs]. – 2025. – Kirish rejimi: <https://samstat.uz> (murojaat sanasi: 20.11.2025)
5. **Maktab.top.** Xususiy va davlat maktablarining ta’lim jarayonidagi farqlari [Elektron resurs]. – 2025. – Kirish rejimi: <https://maktab.top> (murojaat sanasi: 18.11.2025).
6. **Education in Uzbekistan.** – Wikipedia, the free encyclopedia [Elektron resurs]. – 2025. – Kirish rejimi: https://en.wikipedia.org/wiki/Education_in_Uzbekistan (murojaat sanasi: 10.01.2025).